POKISTON GEOSIYOSATIDA AFG‘ONISTON MUAMMOSI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA MUAMMOLAR

Abduvohidov Shukurjon Zokirjon o‘g‘li
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pokiston Islom Respublikasining “Tolibon” boshqaruvidagi muvaqqat hukumati faoliyatida zamonaviy geosiyosiy va geostrategik manfaatlari va ularning amalga oshirish metodlari, yondashuv va yo'nalishlari, shuningdek, vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolari, manfaatlar to‘qnashuvi haqida so‘z boradi. Pokistonning o‘z geosiyosiy maqsadlari yo‘lida vujudga keladigan muammolar tahlil qilinadi va ehtimoliy natija va yechimlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Strategik geosiyosiy makon, Afg‘on “Tolibon” i, TTP, FATA, “Dyurand chizig‘i” va muammosi, Transchegaraviy terrorizm, “Proksi urush” “Azab” operatsiyasi, CPEC, “Pokiston Vision—2025”, demografik inqiroz, deportatsiya siyosati.

Dunyo tez sur’atlarda rivojlanib borar ekan, uning tinchligiga, integratsiyalashuv jarayoniga va o‘zaro manfaatli hamkorliklarga ta’sir qiladigan kuchlar ham bugungi kunda ancha rivojlanib qolgan. Ba’zida ular shaxs yoki kichik ijtimoiy guruh manfaatlariga erishish uchun o‘zlarining g’arazli niyatlari yo‘lida aktlarni tashkil etishsa, achinarlisi, ba’zan shu ishlar ayrim hollarda o‘z manfaati yo‘lida jahon siyosati subyektlari tomonidan dunyoning strategik geosiyosiy hududlarida sun’iy tarzda vujudga keltirilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: "Millionlab kishilarning taqdiri xavf ostida qolar ekan, buni hech qanday maqsad bilan oqlab bo‘lmaydi"[1]. Shunday ekan, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga

1 Karimov.I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida; xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O’zbekiston, 1997. B. 22.

jiddiy xavf hisoblangan hududlardan biri deyarli 40 yildan ortiq vaqt mobaynida urush, siyosiy tarqoqlik natijasida notinch bo‘layotgan va oqibatda ko‘plab yer yuzidagi xavfli terrorchilik harakatlari maskaniga aylangan Afg‘onistondir. Ma’lumki, “urush olovi” afg‘on xalqiga chetdan tiqishtirildi, bu — uning tanlov emas[2]. O‘zining strategik geosiyosiy makonda joylashganligi sababli Afg‘onistonda ko‘plab global va mintaqaviy ahamiyatga ega aktorlar manfaatlari to‘qnashmoqda. Natijada, hududda tinchlikni qayta tiklash ba'zida shunchaki “ommaviy shior” bo‘lib qolmoqda. Shu aktorlarning ichida eng ahamiyatlisi va asosiy geosiyosiy kelajagini Afg‘oniston bilan ko‘radigan davlat bu Pokiston Islom Respublikasidir. Shunday ekan, tabiiy ravishda savol tug‘iladi: Pokiston geosiyosatida Afg‘oniston qanday muhimlik kasb etadi?

Avvalo, bu geosiyosiy manfaat bo‘lib, Pokiston birinchi navbatda, geostrategik jihatdan mustahkamlanib olishdan manfaatdor[3]. Shunday ekan, o‘zida murakkab bo‘lgan siyosiy jarayonlarni kechirayotgan Afg‘onistonni o‘zining siyosiy ta’sirida ushlab turishi, uning siyosiy elita va elita osti qatlamlariga o‘z ta’siri natijasida o‘z ambitsiyalarini amalga oshirishi mumkindir. Bunda muhimlik ahamiyati shundan iboratki, agar Pokiston Afg‘onistonni o‘z geosiyosiy ta’sir doirasiga olish orqali ham o‘z xavfsizligini mustahkamlashga muoffaq bo‘ladi, ham bu bir necha imperiyalar davrida "Bufer zona"[4] vazifasini bajargan "imperiyalar qabristoni"[5] hududi orqali yangi rivojlanish bosqichiga kirgan Markaziy Osiyoda respublikalari geosiyosatida muhim o‘rin olishi ham uzoq davrlik ashaddiy dushmani Hindistonga geostrategik ta’sir o‘tkazishi va unga aynan shu hududdan keladigan xavflarni oldini olishi mumkin

2 Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.2. T.: O’zbekiston, 2018. B. 360.

3 Bjezinskiy Z. Buyuk shaxmat taxtasi.[Ingliz tilidan “Sharqshunos taxlilchilar” jamoasi tarjimasi]. T.: Toshkent, 2022. B. 194.

4Huma Baqai and Nausheen Wasi. Pakistan-Afghanistan Relations: Pitfalls and the Way Forward. September 2021// http://library.fes.de/pdf-files/bueros/pakistan/18346.pdf

5Akhilesh Pillalamarri.Why Is Afghanistan the ‘Graveyard of Empires’. https://thediplomat.com/2017/06/why-is-afghanistan-the-graveyard-of-empires/

bo‘ladi. Shuningdek, bu hududda “mavjud bo‘lmagan hukmdor” bo‘lish orqali o‘zining eng yirik hamkori Xitoy bilan ham xavfsiz va foydaliroq yo‘nalishda tashvishlarsiz “muloqot” qilishga yo‘l ochiladi. Pokistonning Afg‘onistondagi xatti-harakatlarining Xitoy tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi ham ijobiy hodisadir6. Birgina shu hududni qo‘l ostiga olish orqali Pokiston o‘zining bir emas bir nechta geosiyosiy ambitsiyalariga erishishi mumkin. Umumiy qilib aytganda, Afg‘oniston Pokiston geosiyosatida, shubhasiz, strategik obyekt bo‘lishi tabiiydir.

Ikkinchidan, geoiqtisodiy manfaatlar. Bu xususda ikki davlatning ham manfaatlari mushtaraklikda birlashadi. Ya’niki Pokiston Afg‘oniston uchun eng yaqin va eng katta iqtisodiy hamkordir. Afg‘oniston tomoni bundan hozirgi holatidan kelib chiqib, o‘z iqtisodiy inqirozini yumshatish yo‘lida foydalanishi va xalqaro miqyosda boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar uzilgan vaqtda bu o‘ziga xos muqobil yo‘l hisoblanadi. Islomobod tomoni uchun esa o‘z iqtisodiy salohiyati jihatidan tashqi savdo gegemonlari bilan raqobatlasha olmayotgan bir vaqtda yangi bir 32 millionlik aholi bozori zarur omildir. Geoiqtisodiy yo‘nalishlarni boshlanish nuqtasi vazifasini Afg‘oniston bilan bog‘lash orqali birgina afg‘on diyoridan tashqari, u o‘z geoiqtisodiy ta’sirini o‘zi uchun shimoldan boshqa alternativ yo‘l qidirayotgan Markaziy Osiyo respublikalariga ham yo‘naltirishi mumkin. Buning ortidan Pokiston o‘zining energetika iste’moli talabini qondirishi va inqiroz holatidan chiqishi mumkin bo‘ladi. Bu geoiqtisodiy ambitsiyaga erishish uchun Pokiston Afg‘oniston bilan Afg‘oniston-Pokiston tranzit savdo hamkorlik boshqarmasi (APTTCA), Pokiston-Afg‘oniston qo‘shma savdo va sanoat palatasi, Pokiston-Afg‘oniston qo‘shma biznes kengashi, Qo‘shma iqtisodiy komissiya (JEC) kabi instutsional mexanizmlariga egaligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, davlat xavfsizlik manfaati. Bu manfaat shundan kelib chiqadiki, Afg‘oniston hududida bugungi kungacha eng xavfli terrorchilik harakatlari qo‘nim

6 Bjezinskiy Z. Buyuk shaxmat taxtasi.[Ingliz tilidan “Sharqshunos taxlilchilar” jamoasi tarjimasi]. T.: Toshkent,2022. B. 211.

topishi, rivojlanishi notinchlik vaziyati yoki markazning harbiy qudrati ularni to‘liq to‘xtatish uchun yetarli salohiyatga ega emasligi sababli holat barcha chegaradosh davlatlar uchun jiddiy xavfni vujudga keltirdi. Modomiki, 2500 km uzunlikdagi Afg‘onistonning umumiy chegarasini yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadigan chegara qismi Pokiston uchun ham tashvishli holatdir. Ta'kidlash lozimki, Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi chegara masalalarining bartaraf etilmagani Islomobod tomonidan Afg‘oniston ichki siyosiy jarayonlariga bevosita va bilvosita aralashuvining eng birlamchi omili hisoblanadi[7]. Shunday ekan, Pokistondan, albatta, Afg‘oniston bilan munosabatlarini chuqur o‘ylangan dasturlar asosida olib borilishini, uning terroristik aktlar bilan bog‘langan munosabatlariga o‘zining aks ta’sirini berishi talab etiladi.

To‘rtinchidan, transchegaraviy bog‘lanish va transport loyihalari. Ma’lumki, hozirgi davrda Pokiston chuqur siyosiy va iqtisodiy inqirozni bartaraf etish uchun kurashayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. O‘z ambitsiyalariga erishish uchun u o‘zining “Janubiy darvoza” deb izohlanayotgan geografik strategik makonidan ham foydalanmoqchi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, Pokiston geosiyosiy mavqeyi va iqtisodiy salohiyatini oshirishda bir nechta strategik transchegaraviy transport loyihalari: CPEC [8], Transafg'on koridori [9], CASA 1000 [10], TAPI [11] va boshqa hoyihalarga umid bog‘ladi. Bularni shunchaki loyihalar emasligini biz “Pakistan

7 Bo‘ronov. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati: monografiya. T.: EFFECT-D. 2021. B.133.

8 Pakistan Vision 2025 Secretariat Ministry of Planning, Development & Reform, Government of Pakistan. www.pc.gov.pk.Pakistan vision 2025.B.88.

9 Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati, o‘quv qo‘llanma. T.: EFFECT-D. 2021. B.125.

10 "Sharqshunos tahlilchilar" intelektual klubi. CASA-1000 va TUTAP loyihalari.13.01.2022.//https://t.me/Sharqshunos_tahlilchilar/4669

11 Center for strategic & international studies(CSIS).The Energy Situation in Afghanistan and Pakistan and the TAPI Pipeline. June 5, 2014. https://www.csis.org/events/energy-situation-afghanistan-and-pakistan-and-tapi-pipeline

Vision 2025”[12] davlat rivojlanish dasturidan ham anglashimiz mumkin. Bu ishlab chiqilgan strategiyalariga erishish uchun birinchi navbatda, Pokiston uchun har bir loyihada bevosita ishtirok etadigan Afg‘oniston bilan siyosiy munosabatlarda faol bo‘lish sharti talab etiladi va bu o‘zining strategik maqsadlariga erishishda birinchi qadam ham bo‘lishi turgan gapdir. Ko‘rinib turibdiki, Pokiston istaydimi, yo‘qmi har qanday vaziyatda Afg‘onistonda bo‘ladigan siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish masalasi ko‘ndalang qo‘yiladi.

Jarayonlarning bu murakkab holatidan kelib chiqib, Islomobod tomoni faoliyatida Afg‘oniston muammosini bartaraf etish uchun bir nechta strategik ahamiyatga ega yondashuvlarni mujassamlashtirmoqda. E’tiborlisi shundaki, Islomobodning birinchi “Tolibon” hokimiyati davri munosabatlaridan farqli o‘laroq, ikkinchi “Tolibon” muvaqqat hukumati o‘tmishning eng yaqin ittifoqdoshlari manfaatlariga zid bo‘lgan harakatlari Afg‘onistonga qaratilgan o‘z yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni taqazo etmoqda.

Pokiston pragmatik geosiyosatining Afg‘oniston muammosini bartaraf etishga qaratilgan konsensus yondashuvi yoki vositachi subyekt vazifasini bajarishi. Ma’lumki, “Tolibon” harakati Kobulni egallab o‘z muvaqqat hukumatini tuzganiga bir yildan oshgan bo‘lsa-da, lekin haligacha hech bir davlat de-yure davlat sifatida tan olgani yo‘q. Lekin shunday bo‘lsada, u bilan birinchi navbatda, Pokiston rasmiy munosabatlarga kirishgan deya olamiz. Bu, albatta, Islomobodning chuqur anglashilgan pragmatik geosiyosati deyishimiz mumkin. Ya'ni Pokiston strategik ambitsiyalariga erishishi uchun, avvalo, Afg‘oniston dunyo hamjamiyati tomonidan qabul qilinishi kerak. Xalqaro munosabatlar tahlilchisi Sayid Ziya Husayniyning ““Doha kelishuvi”[13] bizni xalqaro miqyosda siyosiy legitimlikka yaqinlashtiradi"[14]

12Pakistan Vision 2025 Secretariat Ministry of Planning, Development & Reform, Government of Pakistan. www.pc.gov.pk.Pakistan vision 2025

13 An official website of the United States Government. https://state.gov//Agreement-For-Bringing-Peace-to-Afghanistan-02.29.20.pdf

fikriga e'tibor bersak, Afg‘oniston tomoni asosiy “inklyuziv hukumat” talabini bajarishi shart. Bunda asosiy rolni Pokiston bajarishi tabiiy holat. Nega aynan Pokiston degan savol tug‘iladi? Buning asosiy sabablari “Tolibon” harakatining tarixiy revolyutsiyasi va kuchli mavqega ega harakatboshilari Pokiston maxsus razvedkasi bilan doimiy aloqada bo‘lgan shaxslardan iboratligini aytishimiz va Islomobodni “Tolibon loyihasi”ni tuzishidan boshlab hozirga qadar ta’sirining yuqoriligi ekanini aytishimiz mumkin. Shunday ekan, har bir davlat “Tolibon” muvaqqat hukumati bilan jarayonlarda Pokiston bilan hisoblashishi kerak bo‘ladi. Agar bu vositachi subyekt rolini Pokiston a'lo darajada amalga oshira olsa, u o‘zining o‘ylagan maqsadlariga erisha oladi.

Keyingisi, bu muammoga madaniy-gumanitar jihatdan yondashish. Afg‘onistonning bugungi vujudga kelishi mumkin bo‘lgan madaniy-gumanitar inqiroziga beparvo munosabatda turish Pokiston uchun misli ko‘rilmagan natijalarga sabab bo‘lishi mumkin. Demografik inqiroz o‘zining yarmidan ko‘proq chegara qismi bilan o‘ralgan Pokiston uchun ham transchegaraviy qochoqlar muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Natijada, demografik inqiroz o‘z makonini hozirgi iqtisodiy va gumanitar holati inqiroz oldida turgan Pokiston hududiga ko‘chirishi mumkin. Eng e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihat ikki tomonlama o‘zaro tan olinmagan Afg‘on-Pokiston chegara qismi transchegaraviy qochqinlarning harakati uchun qulaylik berishi va ziddiyatlarni yanada murakkablashtirishi mumkin. Shunday ekan, bu yondashuv ham Pokiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv doirasida Islomobod Xalqaro hamjamiyat e’tiborini Afg‘onistondagi demografik muammoni oldini olish uchun e'tibor qaratishiga undashi, unga “Tolibon” harakati hokimiyatga kelguniga qadar yetkazilayotgan moddiy yordamlarni davom ettirishga da’vat etishi talab etiladi. Afsuski, bugun barcha davlatlar siyosiy faoliyati sarlavhalari Ukraina urushi bilan to‘lar ekan, “Afg‘on muammosi” chetga chiqib qolmoqda. Pokiston chetga surilgan

14 Banafsha Binesh.Islamic Emirate Accuses US of not Living Up to Doha Agreement, 23 November, 2022//https://tolonews.com/afghanistan-180880

e'tiborni qaytarish uchun harakat qilishi va “Tolibon”ni ham jahon davlatlari talabiga moslashtirishga yo‘naltirilgan geosiyosatida natijaga erisha olsa, xavfli gumanitar inqiroz oldini olishi mumkin.

Birlik daxlsizligini saqlash va terrorizmga qarshi kurashish uchun xavfsizlik yondashuvi. Avvalo, so‘nggi ma’lumotlarga qaraganda, Pokistonning o‘zida ham xilma-xil etnik mojarolar mavjuddir. Bundan tashqari Afg‘oniston bilan chegara “Dyurand chizig‘i” shartnomasi 15 asosida o‘rnatilganligi, uning Kobul tomonidan hozirgacha tan olinmaganligi chegarada etnosiyosiy inqirozlarni ham keltirib chiqaradi.Tolibon axborot vaziri vazifasini bajaruvchi Zabihulloh Mujohid 2022-yil fevral oyida bergan intervyusida shunday dedi: “Dyurand liniyasi masalasi haligacha hal etilmagan, devor qurilishining o‘zi esa chegaraning har ikki tomoniga tarqalib ketgan millat ichida kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu millatni bo'lish bilan barobar” 16 . Shartnoma natijasi bilan bo‘lingan pushtun radikallari bugun Islomoboddan ikki ajratilgan hududni qayta birlashtirish va mustaqillik berishni da'vo qilmoqdalar. Shuningdek, FATA17, Balujiston, Vaziriston kabi hududlarda ham jiddiy muammolar mavjuddir. Jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, bularning barchasi Pokiston birligi uchun katta xavf tug‘diradi.

Ikkinchidan, chegara hududlar va yuqorida aytib o‘tilgan ziddiyatli hududlarda terroristik aktlarning haddan tashqari ko‘payishi ham Islomobodning jiddiy tashvishiga sabab bo‘lmoqda. Terrorizmga qarshi olib borilgan bir nechta antiterroristik operatsiyasilar ham Pokiston iqtisodiyoti zarariga ishlamoqda. Buni yaqqol “Azab”

15 Bo‘ronov. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati: monografiya. T.: EFFECT-D. 2021. B 30.

16 Raza Khan Qazi. As Pakistan’s Afghanistan policy fails, the Afghan Taliban moves against Islamabad.https://www.atlanticcouncil.org/blogs/southasiasource/as-pakistans-afghanistan-policy-fails-the-afghan-taliban-move-against-islamabad/

17 Catrina Doxsee, Jared Thompson and Grace Hwang. Examining Extremism: Islamic State Khorasan Province (ISKP). September 8, 2021. https://www.csis.org/blogs/examining-extremism/examining-extremism-islamic-state-khorasan-province-iskp

operatsiyasi 18 misolida xulosa qilishimiz mumkin. Islomobod diplomatiyasi “Tolibon” bilan terrorizm bilan bog‘liq munosabatlarni amalga oshirmasligini va Afg‘oniston hududida faoliyat olib borayotgan pokistonlik terrorchilarga qarshi qat’iy pozitsiya va talablarda bo‘lishi va Afg‘onistonni terrorizmdan holi bo‘lishiga erisha olmas ekan, o‘zining xavfsizligini to‘la ta’minlashi mushkuldir. Qolaversa, terroristik harakatlar ko‘proq Pokistonning geosiyosiy ambitsiyalari qaratilgan loyihalar o‘tadigan hududlarida bo‘lishi va xitoylik mutaxassislar asosiy nishonga olinishidan bu yerda “proksi urush” unsurlari namoyon bo‘lishi mintaqaviy va global ahamiyat kasb etadi. Bu sharoitda “o‘z ta’sirini kuchaytirish va aks ta’sirni kamaytirish” ustuvor siyosatidan Pokiston oqilona foydalanishi kerak. Qolaversa, Pokiston o‘zining geomafkuraviy ta’sirini ham ishga solgani foydadan holi bo‘lmaydi. Ya’ni muammoda o‘z manfaatini ko‘rayotgan boshqa mamlakatlarga nisbatan Pokiston diniy, etnik, g‘oyaviy qarashlarida ko‘proq yaqinlik mavjud. Bu esa Islomobodga geomafkura bilan ta’sir qilish, manfaatlarni uyg'unlashtirish va etnoslar munosabatlaridagi radikallikni yumshatishi mumkin.

Afg‘oniston muammosini kengroq anglashiladigan bo‘lsak, bu muammo bir davlat hududi bo‘lishiga qaramay, bu yerdagi jarayonlar nafaqat davlat ichidagi guruhlarning hokimiyat uchun kurashi, balki mintaqaviy va global kuch markazlarining g6eosiyosiy manfaatlari to‘qnashuvi asnosida ko‘p qirrali ahamiyat kasb etadi. Uzoq yillar davomida hududda tinchlik o‘rnatishga erisha olishmaganligining sababi ham shuning natijasidir. Bu manfaatlar to‘qnashuvi AQSh o‘z qo‘shinlarini Afg‘onistondan olib chiqib ketishi arafasida alangalandi. Bugungi kunda barcha muammoga ta’sir o‘tkazayotgan aktorlar o‘z manfaati yo‘lida bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Pokiston ham geostrategik maqsadlari yo‘lida muammolardan holi emas.

18 Pakistan Vision 2025 Secretariat Ministry of Planning, Development & Reform, Government of Pakistan. www.pc.gov.pk.Pakistan vision 2025.B.29.// batafsil: https://en.wikipedia.org/wiki/Operation_Zarb-e-Azb

Eng asosiy muammo ikkinchi muvaqqat hukumat tuzishga erishgan “Tolibon” harakati Pokiston uchun o‘zi yaratgan “Tolibon loyihasi” dagi siyosiy kuch bo‘lmay qoldi. Ya’niki “Tolibon” tomonidan Afg‘oniston hududida qayta hukmronlik o‘rnatilishi Pokiston manfaatlaridan ko‘ra “Tolibon”ning o‘z manfaatlari uchun ahamiyat kasb etmoqda. Buni “Tolibon” tomonining Pokiston bilan ziddiyatda bo‘lgan terroristik harakatlarni qo‘llashi, yaxshi munosabatlari va chegara masalasi to‘g‘risidagi Islomobod manfaatlariga qarshi shu qarorlari buning dalili bo‘la oladi. Ayniqsa, asosiy terror faoliyati Pokistonga bog‘langan TTP [19] bilan aloqa, uning hududda erkin harakatlanishi va Afg‘oniston hududini qayta egallagandan so‘ng 2 ming nafardan ziyod TTP a’zolarini qamoqdan ozod qilinishi ham o‘zida qarshi mohiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, muammoga kuchli ta’sir qiladigan AQSh manfaatlari keyingi vaqtlarda Pokiston bilan emas, Hindiston bilan ko‘proq mos tushmoqda. Buning yaqqol dalili sifatida Pokistonning AQSh Milliy Xavfsizlik Strategiyasida [20] aks ettirilmaganini ko‘rsatish mumkin. Bu esa uning Islomobodga aksiltiterroristik aktlar uchun moddiy yordamlarni to‘xtatishiga sabab bo‘lmoqda. Mintaqada Afg‘onistonga demokratik Hindiston orqali ta’sir o‘tkazish, uning mintaqadagi siyosiy mavqeyini oshirish orqali Pokiston uchun yirik hamkor bo‘lgan Xitoy geostrategik ta’sirlarini cheklashga yo‘naltirilmoqda. “Tolibon”ning ham Hindiston bilan yaxshi aloqalarga moyilligi “Tolibon” mudofaa vaziri Mulla Yoqubning CNN-News18 telekanaliga bergan global eksklyuziv intervyusida: “Biz Hindiston bilan yaxshi va samimiy munosabatlarni hohlaymiz... Umid qilamizki, Hindiston ham tashabbus ko‘rsatadi va biz bilan munosabatlarni mustahkamlaydi”.[21] —deya ta'kidlashida namoyon bo‘ladi.

19 International Crisis Group. Pakistan’s Hard Policy Choices in Afghanistan. 04 February 2022. https://www.crisisgroup.org/asia/south-asia/pakistan/pakistans-hard-policy-choices-afghanistan

20 The White House Washington. https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2022/10/Biden-Harris-Administrations-National-Security-Strategy-10.2022.pdf

Bu Pokistonning mintaqada ashaddiy dushmani Hindiston manfaatlariga xizmat qilishi va bu Islomobod uchun muammodagi o‘z pozitsiyasiga jiddiy ta’sir etadi.

Uchinchidan, Pokistonning tabiiy ofatlar, xususan suv toshqinlari natijasidagi inqiroz holati qo‘shnisidan bo‘ladigan demografik ta’sirlarga qarshi turolmasligi mumkinligidan dalolat beradi. Qolaversa, Pokistonning ham Kobulga ko‘rsatadigan iqtisodiy yordamlari chegaralangan. Ochiq aytadigan bo‘lsak, asosiy donorlar — AQSh va Yevropaning boshqa davlatlari iqtisodiy ko‘magisiz Pokiston yordami yetarli bo‘lmaydi. Agar shunday jarayonlar davom etadigan bo‘lsa, Pokiston ichidagi siyosiy bo‘linish, terror va tashqi qarz bosimi ostida parchalanishi, Afg‘onistonning bir ko‘rinishiga tushib qolishi mumkin.

To‘rtinchidan, transchegaraviy bog‘lanish va savdo muammolari. Pokiston iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishlari davlatning energetika sohasi talablari bilan izohlanib, Markaziy Osiyo energetika manbalariga gaz, neft va elektr energiyasiga katta qiziqish bildiradi. Bu kabi transchegaraviy savdo jarayonlarida ham pokistonliklar afg‘on diyoridan kesib o‘tishga majburdir. So‘nggi vaziyatlarni inobatga oladigan bo‘lsak, Islomobodning chegarani o‘rab olish, chegaralararo harakatlanishda rasmiy talablarni murakkablashishi, deportatsiya siyosati va shundoq ham ziddiyatli bo‘lgan chegara tizimini kemirayotgan terrorchilarning asosiy qismi ham shu nuqtalarda joylashishi bunga to‘sqinlik qilmoqda. Natijasi shuki, 2003-yil hisobi bo‘yicha o‘zaro savdo aylanmasi 2 milliard dollar bo‘lgan savdo aloqalari sezilarli darajada pastlagan. Xavfsizlik ta’minlanmagani sababli transchegaraviy savdo o‘z imkoniyatlarini yo‘qotib bormoqda.

Xulosa: Yuqorida yuritgan mulohazalarimizga tayanib xulosa qiladigan bo‘lsak, zamonamizning dolzarb muammosi bo‘lmish Afg’oniston masalasida Pokiston har qachongidan ham chuqur o‘ylab harakatlanmog’i lozim. “Tolibon” muvaqqat hukumati masalasida Islomobod avvalgi toliblar hukumatiga bo‘lgani kabi eng yaqin

21 Manoj Gupta. Great Expectations of India, Gave Crucial Help in Past: Afghan Defence Minister to News18 | Global Exclusive. June 02, 2022//https://www.news18.com/news/world/great-expectations-of-india-gave-crucial-help-in-past-afghan-defence-minister-to-news18-global-exclusive-5292811.html

“himoyachi” pozitsiyasidan biroz yiroqlashishi va munosabatlarda mo‘tadillashgani yaxshiroq bo‘lishi mumkin. Chunki, Kobulda avvaldan Pokiston qo‘llagan toliblarning hokimiyatga kelishi orqasidan AQSh va uning ittifoqchi davlatlari bilan munosabatlar taranglashgandek ko‘rinadi. Agar Pokiston yana “Tolibon”ni qo‘llab, “eng yaqin do‘st” vazifanisini o‘ynashga urinsa yoki xalqaro hamjamiyatdan ayro ravishda mustaqilligini tan oladigan bo‘lsa, G’arb bilan jiddiy qarama-qarshiliklarga duch kelishi tabiiy. Shunday ekan Pokiston tomoni toliblarni inklyuziv hukumat tuzishga undashi, terrorizm bilan har qanday aloqalarni uzishi va inson huquqlari, jumladan, ayollar huquqlarini ta’minlashida xayrixohlik qilishi o'z manfaatlari uchun foydaliroq. Ammo toliblarni o‘zidan juda uzoqlashib ketishiga ham yo‘l qo‘ymaslik shart. Sababi “Tolibon” harakati Islomobod uchun muhim arsenal vazifasini bajaradi.

Xavfsizlik masalasida Pokiston toliblarga “Doha kelishuvi” shartlarini bajarish ustidan qat’iy pozitsiyada bo‘lishi va bu yuzasidan bo‘ladigan AQSh va ittifoqdoshlari missiyasida faol ishtirok etishi kerak. Lekin boshqa jihatdan bu kelishuvni Amerika geosiyosatining “Smart power”i bo'lishi mumkinligini ham anglash kerak. Bu fikrga kelishimizga qariyb ikki yil oldin toliblar bilan kelishuv, uning natijasi, toliblarning Afg’oniston hokimiyatiga kelishi va AQShning so‘nggi siyosat yo‘nalishlari belgilangan hujjatlari Pokiston va uning qudratli sarmoyadorini kuchsizlantirishga moyil bo‘lmoqda. Buni AQShning Hindiston bilan munosabatlarining mohiyati o‘zgarganidan ham bilishimiz mumkin. Shu faktlarni umumlashtirsak, AQSHning toliblar bilan jarayonlarida Islomobodning vositachiligidan voz kechish va aloqalarni to‘g’ridan-to‘g’ri olib borish ko‘zlangan bo‘lishi mumkin. Bu bilan AQSh mintaqada Pokistonni butunlay unutadi degani emas. Faqat istiqboldagi munosabatlar strategik ahamiyat kasb etmasligi mumkin.

Agar Afg’oniston hududi terrorizm uchun boshpana bo‘lishda davom etsa, Pokistonning ulardan keladigan xavflarni bartaraf etish uchun chegarada qat’iy tartib o‘rnatishi va nazoratni kuchaytirishdan boshqa iloji qolmaydi. Shuningdek, Pokiston

Hindiston bilan raqiblik kayfiyatidan chetlashishi va do‘stona aloqalarga kirishishi kerak. Agar shunday voqelik bo‘ladigan bo‘lsa, birinchidan, Islomobod strategik savdo loyihalarini amalga oshirishda Hindiston tomonidan bo’ladigan ma’lum bir qarshiliklarni bartaraf etishiga erishadi, ikkinchidan, ikki o’rtadagi chegara hududida saqlab kelinayotgan qo‘shinlarni Afg’oniston bilan chegaraga safarbar etishi mumkin bo’lar edi. Pokiston Hindistonga bo‘lgan pozitsiyasidan voz kechishi kerak, chunki bu holatdan zararlar ko‘proq bo‘lishi mumkin. Davlat birligiga tahdid qilishni yo‘qqa chiqarish uchun Islomobod ziddiyatli muammolar mavjud bo‘lgan FATA, Balujiston, Vaziriston hududlari ma’muriy boshqaruvini markazdan detsentralizatsiyalash bo‘yicha, bu mintaqalarga davlat e’tiborini kuchaytirish, aholi farovonligi va ijtimoiy ta’minlashini yaxshilash, ta’lim va inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faol siyosat olib borishi kerak.

So‘zimizning oxirida shuni bayon qilishimiz mumkinki, tinchlik va legallik holatidagi Afg’oniston Pokiston uchun eng maqbul geosiyosiy ambitsiyalar makonidir. Islomobod hozirgi muvaqqat hukumatni tan olishga shoshilmaydi va lekin Tolibon bilan muzokaralarda davom etadi. Qolaversa, Pokiston bu shaxmat doskasidagi AQSHning yurishlariga ham ahamiyat berishi kerak. Bu o‘yindan Pokistonning chetlashishi mumkin bo‘lmagan fenomenondir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.2. T.: O’zbekiston, 2018.

2.Karimov.I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida; xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O’zbekiston, 1997.

3.Bo‘ronov.S. Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlik o‘rnatish jarayonlarida O‘zbekiston geosiyosati: monografiya. T.: EFFECT-D. 2021

4.Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati. T.: EFFECT-D, 2021

5.Bjezinskiy Z. Buyuk shaxmat taxtasi. [Ingliz tilidan “Sharqshunos taxlilchilar” jamoasi tarjimasi]. T.: Toshkent,2022.

6.Pakistan Vision 2025 Secretariat Ministry of Planning, Development & Reform, Government of Pakistan. www.pc.gov.pk.Pakistan vision 2025.

7.An official website of the United States Government. https://state.gov//Agreement-For-Bringing-Peace-to-Afghanistan-02.29.20.pdf.

8.The White House Washington. https://www.whitehouse.gov/wp-content/uploads/2022/10/Biden-Harris-Administrations-National-Security-Strategy-10.2022.pdf.

9.Raza Khan Qazi. As Pakistan’s Afghanistan policy fails, the Afghan Taliban.moves.againstIslamabad.https://www.atlanticcouncil.org/blogs/southasiasource/as-pakistans-afghanistan-policy-fails-the-afghan-taliban-move-against-islamabad/

10.International Crisis Group. Pakistan’s Hard Policy Choices in Afghanistan. 04 February 2022. https://www.crisisgroup.org/asia/south-asia/pakistan/pakistans-hard-policy-choices-afghanistan.

11."Sharqshunos tahlilchilar" intelektual klubi.CASA-1000 va TUTAP loyihalari.13.01.2022.//https://t.me/Sharqshunos_tahlilchilar/4669

Foydalanilgan internet saytlari:

https://www.state.gov

https://www.whitehouse.gov

https://www pc.gov.pk

https://www.ips.org.pk

http://www.yuz.uz

https://dunyo.info/uz